

## **“POSITIVE” - XODIM ISHINI YO‘QOTISHIDAN SUG‘URTA QILISH MUHIM SHARTLARI**

### **5. SUG‘URTA PULI VA SUG‘URTA MUKOFOTI. SUG‘URTA SHARTNOMASINING AMAL QILISH MUDDATI**

Sug‘urta pulining miqdori shartnomaga tuzish paytidagi oxirgi o‘n ikki oylik jami ish haqining o‘rtacha 3 (uch) oyligi tashkil etadi.

Sug‘urta mukofoti xodimning oxirgi o‘n ikki oylik jami ish haqining 1 (bir) foizini tashkil etadi.

Sug‘urta polisi, hisoblangan sug‘urta mukofoti to‘langandan keyin yozib beriladi va **ikki oy o‘tgach kuchga kiradi**.

### **6. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA SUG‘URTA POLISINI BERISH TARTIBI**

Sug‘urta mukofoti to‘langandan so‘ng, ikki oydan keyin shartnomaga kuchga kiradi.

Sug‘urta qildiruvchi sug‘urta mukofoti to‘langandan keyin sug‘urta polisida ko‘rsatilgan sug‘urta davrining boshlang‘ich sanasidan soat 00 dan 00 daqiqadan boshlab 1 (bir) yil 2 (oy) mobaynida amal qiladi.

Sug‘urta qildiruvchi quyidagi hujjatlarni fayl ko‘rinishida ilova qilishi shart:

- fuqarolik pasporti nusxasi (ID);
- mehnat daftarchasi nusxasi (yoki my.mehnat.uz portalidan olingan mehnat daftarchasi ko‘chirmasi)
- mehnat shartnomasi nusxasi;
- tashkilot guvohnomasi;
- oxirgi o‘n ikki oylik ish haqi (batafsil oylik ish haqi) to‘g‘risida ma’lumotnomasi;
- Sug‘urtalovchining ishga qabul qilish haqidagi buyruq nusxasi;

### **I. SUG‘URTA HODISASI**

#### **Quyidagilar sug‘urta hodisasi hisoblanadi:**

- korxona mulkdori almashishi sababli xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganda;
- ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o‘zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o‘zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi sababli xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganda.

### **II. QUYIDAGILAR SUG‘URTA HODISASI HISOBLANMAYDI**

- mehnat shartnomasini xodimning tashabbusi bilan bekor qilinganda;
- xodimning o‘z mehnat vazifalarini muntazam ravishda buzganligi. Avval mehnat vazifalarini buzganligi uchun xodim intizomiy yoki moddiy javobgarlikka tortilgan yoxud unga nisbatan mehnat to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan ta’sirli choralar qo‘llanilgan kundan e’tiboran bir yil mobaynida xodim tomonidan takroran intizomga xilof nojo‘ya harakat sodir qilinishi mehnat vazifalarini muntazam ravishda buzishi hisobiga mehnat shartnomasi bekor bo‘lganda;
- o‘rindoshlik asosida ishlamaydigan boshqa xodimning ishga qabul qilinishi munosabati bilan, shuningdek mehnat shartlariga ko‘ra o‘rindoshlik ishi cheklanishi sababli o‘rindoshlar bilan mehnat shartnomasining bekor qilinganligi;
- mehnat shartnomasi bekor qilinishini oldindan bila turib shartnomaga imzolash, shu jumladan tashkilotni tugatish, qo‘sib yuborish, qayta tashkil etish kabi holatlar;
- xodimning pensiya yoshiga to‘lganligi, qonun hujjatlariga muvofiq yoshga doir davlat pensiyasini olish huquqi mavjud bo‘lganda;

• agar nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasining bekor qilish haqidagi buyruq sug‘urta shartnomasining tuzilish sanasidan oldin yoki shartnomani tuzish paytidan boshlab 60 (oltmish) kalendar kuni ichida qabul qilingan bo‘lsa;

• mehnat shartnomasida ko‘rsatilgan muddat tugaganda;

• sug‘urtalanuvchining spirtli, toksikologik, giyohvandlik yoki boshqa mastlik holatlarida, tibbiy yoki psixotrop moddalar ta’sirida sodir etilgan harakati tegishli organ xulosasining mavjudligi oqibatida mehnat shartnomasi bekor qilingan bo‘lsa.

### **Sug‘urta shartnomasi quyidagi shaxslar bilan tuzilmaydi:**

• sug‘urta shartnomasining tuzilish sanasida mehnat shartnomasiga ega bo‘lмаган shaxslar;

• kamida uzlusiz ikki yil davomida ish stajiga ega bo‘lмаган shaxslar;

• mazkur sug‘urta turi bo‘yicha amalda sug‘urta shartnomasi bo‘лган shaxslar;

• Pensiya yoshidagilar yoki mazkur shartnomaga tuzilgan muddatdan boshlab 12 oy ichida pensiya yoshiga yetadigan fuqarolar bilan.

Sug‘urta qildiruvchi shartnomaga tuzish jarayonida yolg‘on yoki noto‘gri ma’lumotlar taqdim qilganligi aniqlangan hollarda Sug‘urtalovchi sug‘urta pulini tulashdan bosh tortish huquqiga ega.

## **III. SUG‘URT PULINI OLISH UCHUN TAQDIM QILINADIGAN HUJJATLAR**

• Ariza

• sug‘urta polisining asli;

• Sug‘urta qildiruvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjat;

• mehnat daftarchasining nusxasi yoki ishga qabul qilingan sana va mehnat shartnomasining bekor qilinish sanasini uning sababi bilan birga tasdiqlovchi boshqa hujjatlar;

• Sug‘urta qildiruvchining ishdan bo‘shatish haqidagi buyruq nusxasi (Mehnat kodeksi tegishli moddasi ko‘rsatilgan holda);

• Sug‘urtalovchi taqdim etilgan hujjatlarning to‘g‘riligini tekshirishi va zarur holatlarda, boshqa kerakli hujjatlarni talab qilishi mumkin;

## **IV. TO‘LOV MUDDATI**

4.1. Sug‘urta qildiruvchi tomonidan sug‘urta hodisasi bilan bog‘liq bo‘лган barcha ma’lumotlar va hujjatlarni to‘liq taqdim qilingandan keyin, Komissiya tomonidan hujjatlar o‘rganib chiqiladi va 15 kun ichida sug‘urta hodisasi yuz berganligi yoki yo‘qligi to‘g‘risida dalolatnomani tuziladi.

Sug‘urta hodisasi yuz berganligi aniq bo‘lsa, komissiya sug‘urta tovoni miqdorini aniqlaydi hamda hodisa tan olinganligi haqida tuzilgan dalolatnomada aks ettiradi.

Sug‘urta tovoni rad etish haqida qaror chiqariganda bu haqda Sug‘urta qildiruvchiga yozma ravishda rad etishni asoslangan sababini ko‘rsatib, yozma ravishda xabardor qiladi.

Sug‘urta tovoni dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab 5 bank kuni ichida Sug‘urtalangan shaxs (Manfaatdor shaxs)ning bankdagi omonat daftarchasiga, so‘mlik plastik kartochka hisob raqamiga uning yozma arizasiga binoan pul o‘tkazish yo‘li bilan to‘lanadi.

Agar Sug‘urta qildiruvchi ish beruvchi bilan yangi mehnat shartnomasini tuzgan bo‘lsa, ushbu holatda sug‘urtalovchi tomonidan sug‘urta tovoni to‘lash to‘xtatiladi.

### **Sug‘urta qildiruvchiga sug‘urta tovoni quyidagicha hisoblanadi:**

Xodimning mexnat shartnomasi bekor qilinganida shartnomaga tuzish jarayonida taqdim qilgan oxirgi o‘n ikki oylik ish haqining o‘rtacha bir oylik miqdori hisoblab chiqiladi. Ushbu o‘rtacha bir oylik miqdori xodim ishdan bo‘shagan kundan boshlab har oyda 1/3 qism miqdorida to‘lab boriladi.

Agar xodim ishdan bo‘shagan kundan boshlab 3 oy davomida tegishli tartibda ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi imzolasa, shartnomaga izolangan oydan keyingi oydan boshlab sug‘urat to‘lovlari to‘lash to‘xtatiladi.

## **7. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

### **Sug‘urtalovchining majburiyatları:**

sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda Sug‘urta qildiruvchiga belgilangan tartibda va muddatlarda sug‘urta tovonini to‘lab berish.

Sug‘urta qildiruvchini amaldagi shartnoma shartlari bilan tanishtirish.

Sug‘urtalovchi O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi va ushbu Qoidada ko‘zda tutilgan boshqa majburiyatlar ham ega.

**Sug‘urta qildiruvchining majburiyatları:**

Sug‘urtalovchiga sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganligi haqida yetti ish kuni ichida xabar berish;

sug‘urta xavfini ortishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan holatlar ma’lum bo‘lganda Sug‘urtalovchini xabardor qilish;

sug‘urta shartnomasida belgilangan muddatlarda sug‘urta mukofotini to‘lash;

Sug‘urta qildiruvchi o‘z hisobidan har kanday oqilona ehtiyoj choralarini qabul qilish, shuningdek qonunlar va normativ hujjatlar buyrug‘iga rioya qilishi kerak.

Sug‘urta qildiruvchi O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi va ushbu Qoidada ko‘zda tutilgan boshqa majburiyatlar ham ega.

**Sug‘urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:**

Sug‘urta qildiruvchidan sug‘urta xolatining sodir bo‘lganligini tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish;

Sug‘urta qildiruvchi, sug‘urta shartnomasi shartlarini bajarmaganda, sug‘urta shartnomasini bekor qilish;

amaldagi shartnomaga va qonunchilikda belgilangan tartibda sug‘urta tovonini to‘lashni rad etish;

sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda holis ekspertizani o‘tkazishni talab qilish;

sug‘urta qildiruvchi tomonidan shartnomada tuzish va keyingi jarayonlarda yolg‘on ma’lumotlar taqdim etilgan yoki qalbakilashtirilgani aniqkanganda sug‘urta tovonlarini to‘lamaslik.

**Sug‘urta qildiruvchi quyidagi huquqlarga ega:**

Sug‘urtalovchidan uning to‘lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligi haqida ma’lumot talab qilish; shartnomada o‘rnatilgan tartibda shartnomani muddatidan ilgari bekor qilish. Sug‘urta qildiruvchining yozma murojaatiga ko‘ra Sug‘urtalovchi tomonidan Sug‘urta qildiruvchiga shartnomaning o‘tmagan muddatiga mutanosib ravishda sug‘urta mukofoti qaytarib beriladi. Bunda sug‘urtalovchining sug‘urta ishini yuritish bilan bog‘liq bo‘lgan sug‘urta mukofotining 25 foizi miqdoridagi xarajatlari qaytariladigan sug‘urta summasidan chegirilib qolinadi;

sug‘urta hodisasi sodir bo‘lgan paytda ushbu Qoidada o‘rnatilgan miqdor, tartib va muddatda sug‘urta tovonini qabul qilib olish.